



Ayni damda Toshkent Botanika bog'i

Ayni paytda respublikamizda koronavirus epidemiyasi sababli e'lon qilingan karantin ekologiya va atrof muhitning yaxshilanishiga, o'simlik va hayvonot dunyosining muhofazasi hamda ularning ko'payishi uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Tabiiyki, ayni damda O'zR FA Toshkent Botanika bog'iga tashrif buyuruvchilar ham yo'q va u yerda olmaxonni, yovvoyi o'rdak, qirg'ovul kabi boshqa paytda uchratish qiyish bo'lgan qushlarni ko'rish mumkin. Shuni alohida aytish mumkinki, hozirda ushbu jonivorlarning ayni ko'payish davri. Tabiatda tobora kamayib borayotgan bu jonivorlarning tabiiy holda ko'payishi quvonarli holat albatta.





Bundan tashqari, kundan kunga yashnab borayotgan daraxtlar, o'simliklar va bir-biridan nafis gullar kishi ko'ngliga go'zallik va nafasat baxsh etadi.

